

Qayd etilishicha, mamlakatimizda ishsizlik darajasi
9,6 foiz (1 million 441,8 ming kishi). Shundan:

Yoshlar orasida:
15,1 foiz;

Ayollar orasida:
13,3 foiz;

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

38 (16491)
2022-yil, 15-iyun
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

**Sharh
2-bet** Yoshlar Konstitutsiyani o'zgartirishda
qanday takliflar bermoqda?

**Mahallada yoshlar yetakchisi
5-bet**

Maqsadim har kuni bitta
yoshga yordam berish

**Uchqun
7-bet** 24-avtobus




Foto: Anvar TO'YCHIYEV

5 TASHABBUS OLIMPIADASI

MUSOBAQALARNING
VILOYAT BOSQICHI O'TKAZILMOQDA

5-betga
qarang ↓

YOSHLAR KONSTITUTSIYANI O'ZGARTIRISHDA QANDAY TAKLIFLAR BERMOQDA?



O'zbekistonda Konstitutsiyaviy komissiya faoliyati yangiliklari va fuqarolardan taklif qabul qilish platformasi – @meningkonstitutsiyam.uz portalida fuqarolardan kelayotgan takliflar e'lon qilib borilmoqda. Hozirgi kunga qadar Konstitutsiyaviy komissiyaga Toshkent shahri, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo, Jizzax viloyatlaridan nisbatan ko'proq takliflar kelib tushgan. Ularning **70 foizdan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolardan kelgan.**

14-iyun holatiga ko'ra, platformada e'lon qilingan 10 745 ta taklifning asosiy qismi **davlat boshqaruvi, inson huquqlari, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash** yo'nalishida bildirilgan. Takliflar orasida korrupsiyaga qarshi kurashni konstitutsiyaviy maqomga ko'tarish masalasi ham ko'p uchraydi. Takliflarda korrupsion jinoyatlar uchun jazo muqarrarligini ta'minlash, hatto o'lim jazosini tiklash kabi takliflar ham bor. Shu o'rinda har bir jismoniy va yuridik shaxs yillik daromadlarini deklaratsiya qilishi majburiy etib belgilansin, degan taklif ham kelib tushgan. "Deklaratsiyada ko'rsatilmagan moddiy boyliklar manbalari aniqlangunga qadar davlat tasarrufiga o'tkazilsin", deyilmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati, viloyatlar va tuman(shahar) hokimlarini xalq tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylash taklifi ilgari surilgan. Bunda hokimlar uzog'i bilan 4 yildan ikki marta, jami 8 yilga saylanish huquqiga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlangan. Bu takliflar nisbatan ko'proq ovoz yig'moqda. Ma'lum qilinishicha, **hokimlar saylansa, ularning xalq oldidagi javobgarligi ortadi.**

Kelib tushgan takliflar orasida davlat tashkilotlarining hududiy bo'linmalarini qisqartirish masalasi ham bor: "Davlat tashkilotlarining

hududiy bo'linmalarini kamaytirish lozim. Bir davlat tashkilotining har bir viloyatda alohida hududiy bo'linmasi bo'lishi shart emas, uni qisqartirish, masalan, 2-3 ta viloyatga 1 ta markaz yetarli. Masofadan turib boshqarish mumkin bo'lgan Soliq qo'mitasi, Markaziy bank kabi davlat tashkilotlarida umuman hududiy boshqarmalar bo'lmasligi lozim".

Davlat boshqaruvida davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirliklar sonini bosqichma-bosqich qisqartirish va xodimlar sonini optimallashtirish taklifi kelib tushgan. "Ta'lim sohasida **Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari negizida yagona Ta'lim vazirligini tashkil qilish kerak**".

Bundan tashqari, platformaga xorijdan olib kiriladigan avtomobillar uchun bojxona to'lovini minimal darajagacha pasaytirish, O'zbekistonda qo'shfuqarolikka ruxsat berish, xususiy mulk daxsizligi hamda tadbirkorlarning huquqlarini amalda ta'minlash, jinsiy zo'rovonlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, ekologiya, bepul tibbiy xizmat va ta'limga doir ko'plab takliflar kelib tushgan.

25 yoshli Ravshan Burhonov global muammo – ekologiya mavzusida taklifi bergan.

– Biz hozir aktual bo'lib turgan ijtimoiy muammolarni yechish qobiliyatiga egamiz. Ammo ekologik muammolarni yecha olmaymiz. Faqat sabablarini bartaraf etishimiz mumkin. Shu sababli Bosh qomusimizda ekologik falokatlarining oldini olish, atrof-muhit va tabiatni asrashga doir reglamentlar qat'iy belgilab qo'yilishi kerak degan fikrdaman. Ya'ni Konstitutsiyaga "Fuqarolarning atrof-muhit va tabiatga nisbatan munosabatlari" bobini kiritish lozim deb hisoblayman, – **deydi Ravshan Burhonov.**




Shahriza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Sevara MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar Parlamenti raisining o'rinbosari:

– Biz hozir konstitutsiyaviy islohotlar jarayonidamiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan bu islohotlarga quyidagi takliflarni bildiraman. **Birinchisi,** Konstitutsiyada yoshlar huquqlarini mustahkamlashimiz kerak. Nima uchun? Prezidentimiz dunyodagi 2 milliarddan ortiq yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi loyihasi ishlab chiqish va qabul qilish tashabbuslarini butun jahon hamjamiyati, yoshlari qo'llab-quvvatlamoqda. Konstitutsiyada onalik va bolalik, xotin-qizlar va erkaklar huquqlari mustahkamlangan, ammo Prezidentimiz tashabbusi bilan butun dunyo e'tiborida turgan yoshlar huquqlari amaldagi Konstitutsiyada ko'rsatilmagan. **Ikkinchisi,** amaldagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida faqat majburiy mehnat emas, bolalar mehnatini ham taqiqlash lozim. **Uchinchisi,** 41-moddaga ta'limning barcha – maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli va turlarini kiritishimiz kerak. **To'rtinchisi,** Konstitutsiyaning 65-moddasida "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deyilgan. Ushbu moddaga onalik, bolalik, va otalik ham davlat himoyasida ekanini kiritish lozim.

BRIFING

YOSHLAR KENGASHINING 15-YIG'ILISHI TAHLIL QILINDI



Avval xabar qilganimizdek, 2022-yil 6-10-iyun kunlari poytaxtimizda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) ishtirokchi mamlakatlari Yoshlar kengashining 15-yig'ilishi o'tkazildi. Kecha AOKAda bo'lib o'tgan brifingda Yoshlar ishlari agentligi axborot va media xizmati rahbari Nodir Abdudodirov yig'ilish yakunlari haqida ma'lumat berdi.

Ta'kidlanishicha, delegatsiyalar tashkilotga a'zo mamlakatlar yoshlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik holati va istiqbollari muhokama qilidilar, shuningdek, milliy yoshlar siyosatini amalga oshirishning muvaffaqiyatli amaliyotlari yuzasidan fikr almashdilar.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berildi. Yoshlar bandligini ta'minlash uchun tashkil etilgan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" tizimining natijalari sarhisob qilindi. Mahallalarda tashkil

etilgan yoshlar yetakchilari lavozimi yoshlar bilan ishlashning yangicha hamda qulay usuli ekanligi ham ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, ShHT Yoshlar kengashi milliy qismlarining 2021-2022-yillardagi faoliyati to'g'risida axborot eshitildi, shu bilan birga, tomonlarning takliflariga binoan, ShHT Yoshlar kengashining 2022-2023-yillarga mo'ljallangan ish rejasi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, yig'ilish doirasida O'zbekiston Respublikasi raisligi doirasida tashabbus bildirilgan "ShHT mamlakatlari yoshlari o'rtasida eng yaxshi startap loyihasi" tanlovi natijalari sarhisob qilinib, g'oliblar tanishtirildi.

Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilgan ShHT Yoshlar kengashi milliy qismining raisligini yuqori baholadi hamda mehmondostlik uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Mashhura NASRIDDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



O'zbekiston Konstitutsiyasini takomillashtirish jarayonida fuqarolardan tashabbuslar @Meningkonstitutsiyam.uz portalini, Telegram-bot, 1341 qisqa raqami va pochta orqali qabul qilinmoqda. Kelib tushgan takliflar inobatga olinishi yoki olinmasligini Akmal Saidov boshchiligidagi konstitutsiyaviy komissiya hal qiladi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish jarayoni shu yil 8-dekabr gacha tugallanishi kutilmoqda.

XALQARO FORUMDA YOSHLAR SIYOSATIGA OID TAJIRIBA ALMASHILDI

Bugungi kunda dunyo miqyosida yoshlar siyosati borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, yosh parlamentariylarning yoshlar huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlashdagi ishtirokini hamda yoshlar siyosatidagi o'rnini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotir.

Yaqinda MDH Parlamentlararo assambleyasining 30 yilligi va MDH Yoshlar parlamentlararo assambleyasining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida "Yosh parlamentariylar – hamdo'stlik kelajagiga nazar" mavzusida forum bo'lib o'tdi.

Forumda o'nga yaqin mamlakat delegatsiyalari ishtirok etib, o'zaro tajriba almashdilar. Forum dasturi doirasida yoshlar siyosati, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, parlamentdagi rolini mustahkamlash, qonun ijodkorligi faoliyatining dolzarb masalalari, yoshlar xalq diplomatiyasi, MDH yoshlar parlamentlari hamkorligini mustahkamlash va xalqaro tajriba mavzusida muhokamalar bo'lib o'tdi.

Mazkur xalqaro forumda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi va Oliy Majlis palatalari huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ham ishtirok etdilar.

– Mazkur forumda yangi taassurot, bilim va tajribaga ega bo'ldik, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya a'zosi Shahnaza Xolmahamatova. – Boisi forum doirasida bo'lib o'tgan yoshlar siyosati, qonun ijodkorligi faoliyatining dolzarb masalalari, yoshlar xalq diplomatiyasi, MDH yoshlar parlamentlari hamkorligini mustahkamlash kabi masalalarda qizg'in muhokamalarda faol qatnashdik

va tajriba almashdik. Forum davomida turli mavzularda seminar-trening, muhokama va davra suhbatlari tajriba almashish uchun katta rol o'ynadi. Xususan, "MDHda yoshlar parlamenti tuzilmalari tajribasi va xalqaro hamkorlikni kengaytirish istiqbollari", "Yoshlar siyosati-da innovatsion yondashuvlar", "Yangi avlod yetakchilari. Bugun yosh siyosatchi qanday bo'lishi kerak?", "Yoshlar parlamentarizmi" kabi mavzular atrofida fikr almashdik, yangi bilimlarga ega bo'ldik.

Muhokamalar jarayonida O'zbekistonda so'nggi yillarda yoshlarga oid keng ko'lami ishlohtlar o'z natijalarini ko'rsatayotgani, yoshlar huquqlarini ta'minlashda O'zbekistonning xalqaro minbarlardan bildirayotgan tashabbuslari mamnuniyat bilan qabul qilinayotganini yig'ilganlar e'tiboriga havola etdik. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan o'rin olgan "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat", degan fikrlari yer yuzidagi barcha mamlakat uchun birdak ahamiyatli ekanligi ta'kidlandi, – deydi deputat.

Darhaqiqat, ushbu xalqaro forumda ishtirok etgan yurtimiz delegatsiyasi a'zolari yoshlar siyosati borasida o'z tajriba va ko'nikmalarini oshirib qaytdilar. Shu bilan birga, mamlakatimizning yoshlar siyosati bo'yicha natijalarini, amaldagi ishlohtlarini yana bir karra dunyo jamoatchiligi e'tiboriga havola etish orqali keng targ'ib qilishga hissa qo'shishdi.

Muhtaroma KOMILOVA,
O'ZA muxbiri

"IBRAT"

"Ibrat" tillar oromgohining 2-mavsumiga 250 nafar yosh jo'nab ketdi.



"Ibrat" tillar oromgohi yurtimizning turli hududlarida istiqomat qiluvchi xorijiy tillar bo'yicha bilimdon yoshlarni bir joyga jamlamoqda. Ishtirokchilar orasida eng chekka hududlardan ham bilimli yoshlarimiz borligi quvonarli. Oromgohning jami ishtirokchilari soni 1700 nafardan oshdi.

177
IMKONIYAT

TO'QUVCHILIK
FAOLIYATIGA
SUBSIDİYALAR



Prezidentimizning 2020-yil 26-iyundagi "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, bir qator imtiyozlar belgilangan.

Jumladan, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibida bo'lgan, gilam va ipak mato to'qish bilan shug'ullanuvchilarga 3 tadan kam bo'lmagan ish o'rnini yaratish sharti bilan gilam va ipak mato to'qish dastgohini xarid qilishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash maqsadida har bir dastgoh uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida subsidiyalar ajratish belgilangan.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Imtiyozdan foydalanish uchun "Qorako'chilik" uyushmasi tarkibida bo'lgan, gilam va ipak mato to'qish bo'yicha faoliyat yuritayotgan shaxslar "Qorako'chilik" uyushmasiga yoki Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga murojaat qilishlari lozim. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini to'g'risida"gi qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

YOSHLAR OYLI GI FINAL BOSH LANDI



Bugun Yoshlar oyligi doirasida Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tashkil etilgan yengil atletika hamda stol tennisning final bahslariga start berildi. Musobaqaga Xorazm va Toshkent viloyati mezbonlik qilmoqda.

Xorazm vohasida o'tayotgan yengil atletika finalida hududiy bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 294 nafar yosh atletlarimiz uchun 16-21, 21-26, 27-30 yosh toifasida o'z mahoratlarini namoyish etayotgan bo'lsa, Toshkent viloyatida har bir hududdan 15 nafardan stol tennis ustalari o'z yosh toifalari bo'yicha kuch sinashmoqda.

Musobaqa davomida ishtirokchilar maroqli hordiq chiqarishlari uchun kinofilmlar na-



moyishi va kino ijodkorlar bilan uchrashuvlar rejalashtirilgan. Yoshlar o'rtasida turli tanlov va viktorinalar, taniqli sport ustalari bilan suhbatlar tashkil etish ham kun tartibidan o'rin olgan. Yopilish marosimida gala-konsert ham bo'lib o'tadi.

Musobaqaning respublika bosqichi g'oliblariga: 1-o'ringa elektron yugurish moslamasi; 2-o'ringa veloyol'akcha moslamasi; 3-o'ringa sport jihozlari hamda bularga qo'shimcha tarzda pul mukofotlari taqdim etiladi. Qolgan barcha ishtirokchilar esdalik sovg'alar bilan rag'batlantiriladi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

MAHALLALARDA “YOSHLAR KOMPLEKSLARI” BARPO ETILMOQDA

Bugun O'zbekiston yoshlari uchun imkoniyatlar juda keng. Ularning puxta ta'lim olishi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun yaratilayotgan sharoitlar qoraqalpog' yoshlarini ham ruhlantirib, yangi marralar sari chorlayapti.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida Qoraqalpog'istondagi 424 ta mahallada ish boshlagan yoshlar yetakchilarining samarali ishlashi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Xizmat xonalari va mebel jihozlari ajratilib, kompyuter jamlanmalari, planshetlar topshirildi. Har bir tuman va shaharda 17 ta namunali mahallalar belgilanib, yoshlar masalasi bo'yicha ish tajribalari ommalashtirilmoqda.

AMALIY YORDAM 1 MILLIARD SO'MLIKDAN OSHDI

Yoshlarning taklif va tashabbuslarini o'rganish maqsadida o'tkazgan so'rovnomamizda 2,1 ming nafardan ortiq yoshlar mahallasida mini futbol maydonchasi barpo etilishini, 3 ming nafarga yaqin yoshlar "Bir millon dasturchi" loyihasida ishtirok etishini, 2,1 ming nafardan ziyod yoshlar "Zakovat" intellektual o'yinlari, futbol musobaqalari o'tkazilishini qo'llab-quvvatlagan edi. Takliflarni hisobga olgan holda mahalla – tuman (shahar) – Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimida "Yoshlar dasturlari" ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Jumladan, "Yoshlar daftari"ga 8 ming 124 nafar yosh kiritilib, ular ko'targan 984 ta muammo hamda taklif hal etildi. Daftardagi 12 ming nafardan ortiq yoshlarga 1 milliard 370 million so'mlik amaliy yordam ko'rsatildi.

Faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlar bandligini ta'minlashdir. Yoshlar yetakchilari hokim yordamchilari bilan hamkorlikda joriy yilning birinchi choragida 8 ming nafardan ziyod o'g'il-qizlar bandligini ta'minladi. Bu natijaga yoshlarni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish, yangi loyihalar tashkil etish, vaqtinchalik jamoat ishlariga jalb qilish, mehnat migratsiyasi hamda subsidiyalar ajratish orqali erishildi.

BO'SH VAQT – XUSH VAQT

Yoshlar yetakchilarining kunlik, haftalik va oylik ish rejaları ishlab chiqilib, uning ijrosiga alohida e'tibor qaratilyapti. Har bir mahallada kuniga kamida bitta tadbir o'tkazish tajribasi joriy etildi.

"Yoshlarning bo'sh vaqti – yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida mahalla yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan turli tadbir va loyihalar o'tkazilyapti. Darvoqe, maktablarning sport va faollari zali hamda kompyuter va kutubxonalarida har kuni soat 16:00 dan 23:00 gacha to'garak va mashg'ulotlar yo'lga qo'yilib, kuniga o'rtacha 12 mingdan ortiq yoshlarning bo'sh vaqtlari mazmunli tashkil etilyapti.

Nukus shahridagi "Yoshlar markazi"da har hafta psixologlar bilan uchrashuvlar, estrada yulduzlari ishtirokida konsert dasturlari, "Bilim ring" intellektual o'yini, turli sohada-gi tajribali mutaxassislar ishtirokida "Mahorat darslari"ni o'tkazish an'ana-ga aylandi. Umumta'lim maktablari



**Ikram
ABDIKALIKOV,**
Yoshlar ishlari agentligining
Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i

va professional ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan "Vatanparvarlar", "Yosh chegarachilar", "Yosh qutqaruvchi", "Yosh gvardiyachi" harbiy-sport musobaqalarining mahalliy bosqichlariga 10,8 ming nafarga yaqin yoshlar qamrab olindi

Yaqinda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan "Laqqlar ligasi" tanlovi hamda "Bilim ring" intellektual o'yinlarining Qoraqalpog'iston birinchiligiga start berildi.

Bundan tashqari, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamkorligida Nukus shahrida harbiy vatanparvarlik va profilaktik o'quv kursi tashkil etilib, unga 300 nafar profilaktik hisobda turuvchi va jinoyatchilikka moyil yoshlar jalb qilindi.

515 NAFAR NURONIY- GA 5150 NAFAR YOSH

Barkamol avlod tarbiyasida nuroniylar pand-u nasihatlari, o'g'itlari g'oyatda zarur. Shu bois "Bir nuroniyga o'n nafar yosh" loyihasi doirasida 515 nafar nuroniyga 5150 nafar o'g'il-qiz birkirildi. Haftaning har payshanba kunlari mahallalarda "Uch avlod uchrashuvlari" va "Nuroniylar e'tiborimizda" mavzularida ma'naviy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Yana bir yangilik – Nukus shahridagi "Tung'ish qonisi" mahallasida milliy an'analarni o'zida jamlagan qora uy

barpo etilib, "Nuroniylar dam olish markazi" tashkil etildi. Uyning qoshidagi kichik bog'da nuroniylar hamda yoshlar shaxmat o'ynashi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

YANA BIR YANGILIK

Yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlarning ko'lami haqiqatan ham keng. Misollarni yanada davom ettirib aytish mumkinki, mahalliy byudjet va homiylik mablag'lari hisobidan mahallalarda yoshlar uchun qulay joylarda "Yoshlar komplekslari" barpo etilyapti. Jumladan, birinchi tipdagi "Yoshlar kompleksi" Amudaryo tumanida 20 ta, Beruniy va Qonliko'lda uchttadan, Qorao'zakda bitta, Qo'ng'irotda 6 ta, Mo'ynoqda 12 ta, Nukus tumanida 8 ta, Taxiotoshda 13 ta, Taxtakopir tumanida 8 ta, Chimboyda 20 dan ortiq, Ellikqal'ada 6 ta. Shuningdek, Nukus, Qorao'zak, Qo'ng'irotda mahallalarda ham ikkinchi tipdagi "Yoshlar komplekslari" tashkil etildi.

Qoraqalpog' yoshlarining madaniyat va san'at, sport bilan muntazam shug'ullanishi, kitob o'qishiga sharoit yaratish maqsadida mahallalarda 20 ta "Yoshlar komplekslari", Amudaryo, Qonliko', Shumanay hamda Nukus tumanlarida sun'iy aqplamali sport maydonchalari, Qo'ng'irotda, Kegeyli, Chimboy va Qorao'zak tumanlarida "Yoshlar markazi"ni barpo etish rejalashtirilmoqda.

Oldimizga qo'yilgan muhim vazifalar borki, bu bizni doimiy harakatda bo'lishga, tashabbus ko'rsatib ishlashga undaydi. Zero, yoshlarning orzu-umidlari bisyor. Ular ro'yobi yo'lida esa kamarbas-ta bo'lishga doim tayyormiz.

“

HAR BIR TUMAN VA
SHAHARDA 17 TA NAMUNALI
MAHALLALAR BELGILANIB,
YOSHLAR MASALASI
BO'YICHA ISH TAJRIBALARI
OMMALASHTIRILMOQDA.



“

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA NURONIYLAR PAND-U NASIHATLARI, O'GITLARI G'OYATDA ZARUR. SHU BOIS "BIR NURONIYGA O'N NAFAR YOSH" LOYIHASI DOIRASIDA 515 NAFAR NURONIYGA 5150 NAFAR O'G'IL-QIZ BIRKIRILDI.

MAQSADIM HAR KUNI BITTA YOSHGA YORDAM BERISH

Mahalladagi yoshlarga yetakchilik qilish naqadar mas'uliyatli vazifa bo'lsa, bu mas'uliyatni men ikki karra ko'proq his qilaman. Sababi endigina 20 yoshimda mahallamdagi tengdoshlarim, aka-opalarim muammosini o'rganib, ularga yechim topish vazifasi menga yuklatildi. Men esa hech ikkilanmasdan ishga kirishdim.


Hech esimdan chiqmaydi, faoliyatimning ilk kunlarida o'zim tengi yoshlardan biri yonimga kelib, muammosini aytdi. Murojaatchi oilaviy ahvoli og'irligini, biror ish qilib oilasiga yordam berish istagini bildirdi. Qoraqalpog' milliy quroqlarini tikishni bilishini, lekin bu hunar bilan daromad olishi uchun tikuv mashinasi kerakligini aytdi. Men esa subsidiya asosida tikuv mashinasi olishga tavsiyanoma berish bilan cheklanmadim. Mahallamizdagi tadbirkorlarni jalb qilib, Nargizaning ish boshlashi uchun



nima zarur bo'lsa, hamma narsani olib berdim. Bundan suyungan Nargiza mahalladagi quroq tikishni o'rganish istagidagi qizlarga o'z hunarini beminnat o'rgatishga va'da berdi.

Hozir Nargiza tikayotgan liboslarga talab yuqori. Ayniqsa, chet ellik sayyohlar qo'l mehnatida yaratilgan mahsulotga yaxshigina haq to'lashmoqda. Hatto men ham bo'sh vaqtlarimda oilasining og'irini yengil qilayotgan tengdoshimning hunarini o'rganyapman.

Kunlar o'tgan sari men o'z vazifalarimni to'laroq anglab yetdim. Murojaatchilar ham ko'payib boraverdi. Ularning masalasiga yechim topganim sari o'zimga ishonchim ortib bordi.



Mahallamizdagi Jasurbek ham ish topishga qiyalayotgan yoshlardan biri edi. Ota-onasi nogiron bo'lgani uchun oilada yagona boquvchi - Jasurbekning mebel yasashga uquvi borligini bilib, unga imtiyozli kredit olish taklifini aytdim. U esa buyurtma bo'lmasa, oylik to'lovlarni to'lolmay qolishidan qo'rqdi.

**Ulbo'sin
MAMBET'YAROVA,
Qo'ng'iro't tumanidagi
"Mingjarg'an" mahallasi yoshlar
yetakchisi**



So'ng mahalladagi hokim yordamchisi bilan muammoga birgalikda yechim izladik. Tumanidagi kichik bir tadbirkorning ishxonasiga mebel yasatmoqchiligini eshitib, mazkur mebellar uchun buyurtmani Jasurbekka berishini iltimos qildik. Tadbirkor taklifimizni qabul qilgach, Jasurbek uchun kredit chiqarib, kerakli uskunalarini olib berdik. Hozir ketma-ket buyurtmalar qabul qilayotgan Jasurbek yaxshigina daromad topyapti.

Mahalla yoshlar yetakchilariga yuklatilgan vazifalar oz emas. Ularning hammasini uddalash maqsadida hududimizdagi har bir ko'chaga Sardorlar tayinlaganman. Sardorlar menga har ishda ko'maklashib kelmoqda. Yaqinda start berilgan "Yosh kitobxon oila" tanlovining mahalla bosqichida har bir ko'chadan bittadan oila ishtirok etdi. Ularning tanlovga tayyorgarlik ko'rishida ko'cha sardorlari yaqindan yordam berishdi. Shuningdek, kitobxon oilalar bilan birgalikda kitobni o'qib chiqib, tanlovga tayyorgarlik ko'rishdi. Shu tariqa sardorlar ham ancha-muncha kitob o'qib oldi.

Mahallamiz yoshlari "Mushoira" tanlovining tuman bosqichida birinchi o'ringa egallab, Qoraqalpog'iston bosqichida qatnashib, ikkinchi o'rinni egalladi. Bunda ham mahallamiz sardorlarining hisssasi katta bo'ldi.

Yoshlar yetakchisi bera oladigan 13 turdagi tavsiya mahallamiz yoshlari uchun 13 ta imkoniyat eshigidir. Oilada eng kichik farzandman va shu bilan birga, eng yosh yetakchi. Eng katta maqsadim har kuni kamida bitta yoshga yordam berish. Natijaga erishish uchun esa tinimsiz harakat qilib, menga berilgan ishonchni oqlayman.

BESH
TASHABBUS
OLIMPIADASI

5 TASHABBUS
OLIMPIADASI

JOYLARDA VILOYAT BOSQICHI

O'QISHGA MOTIVATSIYA ORTADI

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus doirasida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar talabalarimizning o'qishdan bo'sh vaqtlarini xush kayfiyatda, foydali mashg'ulotlar bilan o'tkazishlari uchun ayni muddao. Har kim qiziqishlariga qarab o'zi xohlagan tanlovda ishtirok etishi mumkin. Bugun universitetimizda "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovining viloyat bosqichi yakunlandi. Bu yerda olingan energiya va yaxshi kayfiyat bilan talabalarda o'qishga bo'lgan motivatsiya ham ortadi. Axir, yaxshi dam - mehnatga hamdam.

Obid SHOFIYEV,

Termez davlat universiteti prorektori



ZAMONAVIY SPORT TURI OMMALASHMOQDA

Yoshlarni sportga qiziqtirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishda "Street workout" sport turi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunga "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilayotgan "Street workout" sport musobaqasining Namangan viloyat bosqichida amin bo'ldik. Quvonarlisi, ushbu sport turi zamonaviy sport o'yinlarini ommalashtirishga ham yordam bermoqda.

Musobaqada mahalla, sektor va tuman bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan, 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 100 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi.



"ZUKKO KITOBXON" BILIMDONLAR TURNIRI

Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida ko'plab tanlovlar o'tkazilmoqda. "Zukko kitobxon" intellektual turniri ham aynan shu maqsadda yo'lga qo'yilgan.

Tanlovning Sirdaryo viloyat bosqichi haqiqiy bilimlar jangiga aylandi. Qizg'in munozaralarga boy, ammo haqqoniy o'tgan bellashuvda 1-o'rinni Shirin shahri "Vatanparvar" mahallasi yoshlari egalladi. 2-o'ringa Xovos tumani "Istiqlo'l" mahallasi yoshlari munosib deb topildi. Yakunlovchi 3-o'rin Oqoltin tumani vakillariga nasib etdi.

Lobar QODIROVA



TUSHGA KIRGAN O'LIMLAR

O'ylab ko'ring-a, siz qilgan xatolar evaziga bu dunyoni tark etganlar ruhi tushlaringizga har kuni kiraversa... Bunday insonlar hayotda bisyor.

"Vijdon saratoni" nomli hujjatli filmida shunday insonlardan biri haqida so'z boradi. Filmida mamlakat rivojiga g'ov bo'layotgan korrupsiyani ko'rsatishga urinishgan. Bosh qahramon korrupsiya yuzasidan material yig'ish uchun shunday jinoyat bilan qamalganlarning hujjatlari saqlanadigan xonaga borganidagi tasvir odamni hayratda qoldiradi. Chunki u yerda son-sanoqsiz hujjatlar turadi. Ularni sarhisob qilolmagan tomoshabin shuncha jinoyatchilar kimlarningdir umriga, davlatning rivojiga zomin bo'ldimikan, ularning ham vijdoni saraton bilan og'riyaptimikan, degan savollar girdobiga tushadi.

Tomoshabin, ayniqsa, viloyatlarning birida sog'liqni saqlash bo'limida ishlayotgan qahramon kam ta'minlangan oilalarning saraton bilan olishayotgan bolalari o'rniga boylarning bolalarini ro'yxatga kirgizib, endi esa o'sha davolanmagan bolalarning arvoqlari bilan tushlarida yuz ko'rishayotganini eshitib ham unga achinadi, ham nafratlanadi...

Gaylo ESHBOYEVA,
O'zDJTU talabasi



SO'ZDAN SO'ZNING FARQI BOR

Dunyoda tillar ko'p, lekin o'zbek tili boyligi bilan ajralib turadi. Bir so'zdan bir necha ma'noda foydalanish mumkin. Ba'zi so'zlarning ma'nosini to'liq tushunmasdan foydalanamiz. Agar uning mohiyatini o'rganadigan bo'lsak, mentalitetimizga to'g'ri kelmasligini anglaymiz.

Misol tariqasida quyidagi so'zni keltirishim mumkin: "Padaringga la'nat". Avvalo, bu so'zni lug'aviy tomondan tahlil qilib ko'raylik. "Padar" so'zi ota demakdir. "La'nat" bo'lsa, "qarg'ish", "hayf"dir. Demak, "padaringga la'nat" - otaga nisbatan juda haqoratli ibora. Birovning otasini, onasini so'kish to'g'ri emas. Imom Buxoriy keltirgan hadisda shunday deyiladi: "Kimda-kim birovning ota-onasini so'ksa, haqoratlasa, o'z ota-onasini haqoratlagan bo'ladi"...

Madina OMONQULOVA,
O'zDJTU talabasi



YANGICHA SAN'AT

Metro bekati yo'lagida bir yigit gitara chalib, jonli ijroda qo'shiq kuylardi. Atrofdagilarga e'tibor bermas, go'yoki kimsasiz joyda kuylayotgandek tutardi o'zini. Shuncha olomon oldida buni qanday uddalash mumkin? Maqsadi daromadmi yoki qiziqish? Ikkilanmay qo'shiqchiga yuzlandim.

- Bu men uchun hobbii, - dedi o'zini Aziz deb tanishtirgan yigit - Uzoq vaqtlardan beri shug'ullanayotganim bois hozir odatiy hayot tarzimga aylangan. Shuning orqasidan kuniga 200-300 ming so'm topaman.

Atrofni muxlislar o'rab olganidan ularga ham manzur bo'layotgani ko'rinib turardi. Kimdir raqs tushar, kimdir esa qo'shiqqa jo'r bo'lardi. Hozir bunday hollarga deyarli har bir istirohat bog'i, gavjum xiyobonlarda duch kelamiz. Bu ham san'atning bir bo'lagiga aylanib ulgurdi, menimcha.

Ismigul JO'RAQULOVA,
O'zJOKU talabasi

OXIRAT CHIROG'I

Bir boy inson umrini mol-u davlat to'plash va boylik orttirishga sarfladi, oqibatda og'ir kasallikka duchor bo'ldi. U vasiyat qilish uchun farzandlarini oldiga chorladi va katta o'g'liga:

- O'g'lim, bu hayotdan umidim qolmadi, kundan kunga ahvolim og'irlashib boryapti. Endi tushundimki, to'plagan boyligim oxirat safarim uchun menga naf bermas ekan. Go'yo oxirat yo'lim qorong'i yo'lakka o'xshaydi. Butun boyligim sizlarning qo'lingizda. Endi siz shunday bir chiroq yoqingki, toki oxirat yo'lim yorishsin...


Bu so'zlarni aytgach bir muddat o'tib boy kishi shifo topib oyoqqa turdi. O'sha kunlarda bir yaqinidan maktub keldi, unda boy kishi mehmonga taklif qilingan edi. Boy bir chiroq olib chaqirilgan xonadonga borish uchun to'ng'ich o'g'li bilan yo'lga chiqdi. Ota oldinda farzand esa orqada borardi, chiroq esa uning qo'lida edi. O'g'il otadan biroz ortda qolgandi oldi qorong'ilashgan ota farzandiga dedi:

- O'g'lim, tezroq yur bu joylar qorong'i ekan, yiqilib biror narsa bo'lib qolmay.


Farzand otasiga shunday javob berdi:

- Otajon, esingizdami bemorligingizda "Men bu dunyoda oxiratim uchun biror narsa qilmadim, xohlaymanki, mendan keyin bir chiroq bo'lsin va u oxiratimni yoritsin", degan edingiz. Buni qarangi, chiroq orqada tursa, oldinni yoritmas ekan. Yorug'likni istasangiz, chiroqni oldindan tayyorlang. Siz shunday amalda bo'lingki, oxirat yo'lingiz yorug' bo'lsin.

Parizoda NORPO'LATOVA, O'zDJTU talabasi



JURNALISTIKA - SHARAF, OQ XALAT - HALOLLIK!



2017-yil dekabr. Talaba bo'la olmaganim va ishsizlik tufayli ko'zlaringa uyqu kelmas, muammolarimning yechimini qidirib bedor edim. Ertasi kuni tibbiyot kollejining imtiyozli diplomini qo'limga oldim-u, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazining Samarqand filialiga otladim.

Buni qarangi, u yerda yangi kadrlarga ehtiyoj bor ekan. 300 nafardan ortiq talabgorlar ichidan suhbat asosida saralab olingan 30 kishining orasida bo'lish menga nasib qildi. Agar o'sha kuni jur'at qilib hujjat topshirmaganimda doimiy depressiyada yuravergan bo'lardim.

Ish jarayoni juda ham qizg'in edi. Har kuni 20-25 ta tez tibbiy yordam chaqiriqlariga borish, kimningdir dardiga shifo ulashish menga zavq bag'ishlardi. Muntazam ish-

ga ega bo'lsam-da, qalbimda oliy ta'lim muassasasiga kirish istagi o'lmasdi.

Tibbiyot sohasiga muhabbatim kuchli edi. Biroq bolalikdagi qiziqishim, oilamizdagi til va adabiyotga, so'zga mehr meni jurnalistika tomon yetakladi. Va nihoyat, orzularim amalga oshib, 2020-yilda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga o'qishga qabul qilindim.

Talabalik davrimning boshlanishi koronavirus pandemiyasining avj pallasiga to'g'ri keldi. Har bir idora va tashkilotlarda koronavirusga chalingan bemorlar aniqlanib, izolyatsiyaga olinardi. Bu holat 2021-yilning aprel oyida bizning talabalar yotoqxonasi ham chetlab o'tmadi. Tabiiyki, bunday paytda tibbiyot xodimlariga talab oshgan edi. Karantin sharoitida yotoqxonadagi isitmasi ko'tarilgan, kasallik belgilari ko'rina boshlagan talabalarga tajribam borligi sababli yordam ko'rsata boshladim. Qilayotgan ishlarim ko'pchilikning nazariga tushib, universitet tibbiy bo'limiga ishga qabul qilindim.

Bugungi kunda o'qish bilan birga kasallikka chalingan talabalarga qo'limdan kelgancha yordam ko'rsatayapman. Davo topishida mening ham hissam bo'lgan tengdoshlarim yuzidagi mamnunlik hissini kuzatar ekanman, yuragimni faxr tuyg'usi egallaydi. Men uchun jurnalistika - sharaf, oq xalat esa halollik ramzidir!

Eldor ABDULLAYEV,
O'zJOKU talabasi

24-

AVTOBUS



Qirmizoy HAKIM



Talabalik baxtiga muyassar bo'lib, Toshkentga yo'ldim. Katta shaharning ko'chalari, odamlari – hamma-hammasi yot. Ba'zan bu hol meni hadiksiratar, ichimda qandaydir his o'zini qo'lga ol, hammasi yaxshi bo'ladi, der edi. Uydagilar bilan qo'ng'iroqlashar ekanman, ularning "ehtiyot bo'l, hammani do'st bilib ichingdagilarni aytaverm" degan maslahatlari xavotirimi battar oshirardi...

Shunday kunlarning birida soddaligim sabab avtobusda sumkamdagi pulimni o'g'irlatib qo'ydim. Oxirgi bekadga hamma avtobusdan tushib ketdi, eshiklar yopildi. Men esa sumkamni titkilaipman, zora pulim topilib qolsa...

– Qizim, tushasanmi?

Haydovchiga nima deyishni bilmayman. Bir muddatlik sukutdan keyin pulimni – nafaqat yo'l haqi, ijaraga beradigan pullarimni ham yo'qotib qo'yganimni aytdim. Amaki eshitib, yupatuvchi ohangda:

– Qizim, xafa bo'lma, bunda ham bir hikmat bor. Mana, endi o'zingga ehtiyot bo'lishing kerakligini bilib ol-

ding! Endi nima qilasan? Ijara pulingni qanday to'laysan? – deya achindi.

Amakining gaplaridan keyin o'zimni tutib tura olmadim, yig'lab yubordim. Haydovchi beli rezenkaga mahkam qilib o'ralgan pul uzatdi. Aftidan, uni anchadan beri yonida saqlab yurgan bo'lsa kerak. Men dam pulga, dam amakiga qarab arosatda turib qoldim. Buning boisi nima? Nega begona inson menga pul tutyapti?

– Qizim, bu pulni ol, sening vaziyatingni tushunib turibman. Qiz bola pulga muhtoj bo'lmasligi kerak. Agar shunchalik hijolat chekayotgan bo'lsang, uydagilarning pul yuborganda berarsan. Men bu yerda 5-6 yildan beri haydovchilik qilaman. Uyim ham shu atrofda. Ko'pchilik meni taniydi...

Menga bundan boshqa yo'l ko'rinmadi – pulni olib, avtobusdan tushib qoldim. Bu insonning yaxshiligini unutmay, albatta, ko'pi bilan qaytarishni niyat qildim. Orada qo'shimcha ish topdim, birinchi oyligimni o'sha amakiga berish niyatida uni izladim, ammo uni hech kim tanimas, avtobus leniyasida

ham ortiq ko'rinmas edi. Xash-pash deguncha ta'til boshlanib, qishloqqa qaytdim. Bo'lgan voqealarni onamga so'zlab berdim...

Yangi o'quv yili arafasida tog'am meni ijara uyga joylashtirib ketish uchun mashinasida olib keldi. Tor, odamlar gavjum ko'chadan kirib borar ekanmiz, "tog'a!" deb baqirib yubordim. Ko'chani kesib o'tayotgan nogironlik aravachasidagi odamni urib yuborishimizga bir bahya qolgandi. Tog'am jahl bilan mashinadan tushdi va unga baqira ketdi. Nogironlik aravachasidagi kishini tanib, beixtiyor o'zimni tashqariga otdim. Ko'zlarimga ishonmas, hayratdan tilim aylanmasdi. Bu o'sha, qiyin ahvolda yordam bergan saxovatpesha inson edi. Uni uzoq qidirganimni aytdim, qanday bu ahvolga tushib qolganini so'radim. Tog'am hech narsani tushunmas, dam menga, dam amakiga qarardi. Bo'lgan voqeani aytib berdim. Tog'am gaplarimni tinglar ekan, amakiga razm soldi. Keyin mashinasidan tashrif qog'ozini olib, ertaga shu manzilga borishini aytdi. Amakining taajjub aralash nigohiga javob tariqasida o'zining shifokor ekanini ham qo'shib qo'yd...

Oradan ancha vaqt o'tdi. Tog'am menga qo'ng'iroq qilib, amaki endi yurib ketishini, jarrohlik amaliyoti yaxshi o'tganini aytdi. Shu onda qalbidagi g'uborim aridi. Yaratganing karami kengligiga, savobning javobi borligiga shukrona keltirdim.

Bizni o'rab turgan borliq, atrofigidagi insonlar parvarishga, mehr-muhabbat hamda e'tiborga muhtoj. Ko'chada yotgan toshni bir chetga surish, daraxtga bir hovuch suv quyish, yo'lga og'ir yuk ko'tarib ketayotgan kishiga yordam qo'lini cho'zish – bularning barchasi yaxshilik fazilati. Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik. Buning hosilini, albatta, o'rib olamiz.

Ha, aytgancha, mabodo Yunusobod tomonga yo'lingiz tushib, 24-avtobusga o'tirganda yuzidan nur yog'ilib turadigan, sochlari xiyol oq, qorachadan kelgan haydovchiga duch kelsangiz, mening salomimni yetkazib qo'ying. U mening amakim, u yana avtobus haydayapti!

YOSHLIK ILHOMLARI



ARZIRMIDI...

*Tunni bedor o'tkazmoqlik,
Tarab ko'kka yetkazmoqlik.
Joningdan jon tutqazmoqlik,
Qabog'ingga arzirmidi?*

*Bemor bo'lsam, gir parvona,
Sog'intirsam, dil – so'zona.
Aytgin, mendek sha'r peshona,
Dudog'ingga arzirmidi?*

*Xirmon, paxta, qir-u adir,
Mehnat, mehnat – shumi taqdir?
Qo'llaring kuydirgan tandir,
Qadog'ingga arzirmidi?*

*Turmushning mushti bor qaro,
Bir boshingga ming bir savdo.
Ko'zingdan yosh to'kkan dunyo,
Yanog'ingga arzirmidi?*

*Yo'qchilikning yo'qliklari,
Bolang to'ysa sho'xliklari.
Yetti dunyo ko'hliklari,
Sabotingga arzirmidi?
Ona?*

Osoda ODILOVA,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi

HUQUQ TARG'IBOTI – QONUN TARTIBOTI!

Xabaringiz bor, haftaning har payshanba kuni – "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" deb e'lon qilingan Xo'sh, huquqbuzarlik nima o'zi, uning profilaktikasi-chi? O'ylaymizki, har bir fuqaro buni bilishi kerak. Negaki fuqarolar huquqbuzarlik tushunchasi haqida tasavvurga ega bo'lmasa, sodir etilgani uchun ma'muriy yoki jinoy javobgarlik nazarda tutilgan aybli, g'ayriqonuniy qilmish, harakat yoki harakatsizlik huquqbuzarlik hisoblanishini ham bilmaydi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi jarayonining samaradorligi ayni mana shu nuqtada hal bo'ladi. Chunki profilaktik ishlar huquq tartibotni saqlash va mustahkam-

lash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish doirasida qo'llaniladigan umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik chora tadbirlarning umumiy tizimini o'zida namoyon etadi. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda ana shunday chora-tadbirlarning umumiy tizimi, ularni amalga oshiruvchi organlar va ularning vakolatlari aniq belgilab berilgan.

Ma'lumki, ichki ishlar, prokuratura organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya, Davlat bojxona,

soliq, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi muassasalar hisoblanadi. Biroq qonun targ'ibotidan ko'zlanayotgan maqsad uning aholi, ayniqsa, yoshlar hayotiga keng kirib borishiga erishishdan iborat. Sababi aynan yosh avlod vakillari hayotida huquqbuzarliklar sodir etish darajasi yuqori. Shu bois yoshlarning huquqiy savodxonligi alohida ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Mahalla faollari, davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolarni profilaktik tadbirlarga

keng jalb etish birinchi navbatda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashda nafaqat mutasaddilar, balki butun jamiyat ishtirok etishi, albatta, fuqarolarning tinch-totuv, farovon hamda osoyishta yashashi uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, biz yurtimiz tinchligi, fuqarolarimiz xavfsizligi uchun o'z hissamizni qo'shish, uni ko'z qarachig'imizdek asrashni muqaddas burchimiz deb bilamiz.

Burxoniddin TURDALIYEV,
IV akademiyasi kursanti

“UNIVERSE” – CHEKSIZ BILIMLAR SARI!

Bugun yurtimizda volontyorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaqinda ana shunday ezgu loyiha, xayrli tashabbuslar atrofida yoshlarni birlashtirgan "Universe" volontyorlar maktabining 2-mavsumi yakunlandi.

Loyihada ishtirok etish uchun 400 kishi ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, shulardan 100 nafari qabul qilindi. Ular sohasining yetuk mutaxassislaridan loyihalar boshqaruvi, biznes, notiqlik, psixologiya, SMM, blogerlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha saboq olishdi.

"Universe" volontyorlar maktabi ishtirokchilarining faolligiga qarab, qizil hamda ko'k rangdagi diplomlar topshirildi.

– Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad "networking"ni kuchaytirish va ishtirokchilarga shaxsiy rivojlanishida zarur bilimlarni berish edi. Missiya bajarildi. Biz bu ishni birga qildik, – **deydi loyiha rahbari, Toshkent shahar "Kamalak" bolalar tashkiloti raisi Azizbek Ochilboyev.**

Loyihaning faol ishtirokchisi sifatida taassurotlarim anchagina. Shaxsiy rivojlanish maktabida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tganimga "Loyihangiz loyiham uchun ko'prik bo'lishiga ishonaman", – degan jumlaning yozgan edim. Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Jamoam bilan birgalikda tayyorlagan "Tanga" nomli loyiham tashkilotchilar tomonidan ijobiy baholangani va amalga oshirilishi uchun Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy kengashi tomonidan moliyalashtirilishi meni yanada shijoatli bo'lishga undadi. "MPMG" rahbari Ulug'bek Ismatov aytganidek, "Universe" volontyorlar maktabining bilimlar qabristoniga aylanishiga yo'l qo'ymaymiz. Aksincha oltin fondning asosiy qismi bo'lishga va'da beramiz!

Komila HAMROYEVA,

"Universe" volontyorlar maktabi 2-mavsumi ishtirokchisi



E'LONLAR

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Chilonzor tuman mahalliy kengashining 2017-yil 28-avgustdagi 581n-sonli davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinsin.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Shayxontohur tuman mahalliy kengashining 2017-yil 28-avgustdagi 582n-sonli davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinsin.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Yakkasaroy tuman mahalliy kengashining 2017-yil 28-avgustdagi 584n-sonli davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinsin.

FORMA JORIY ETILISHI ZARUR

Bola ulg'aygan muhit uning butun kelajak yo'lini belgilab beradi. Shu sababdan maktablarda o'quvchilarga teng ta'lim berish, ijtimoiy tenglikni saqlash muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz 2017-yil maktablarda bir xil formani joriy qilish tashabbusini ilgari surib, "Bizning jamiyatdagi eng katta masala – boy bilan kambag'al orasidagi munosabat. Oddiy oilaning oddiy kiyingan bolasi yaxshi kiyingan boladan g'ashi keladi. Aynan mana shu narsani yo'q qilishimiz kerak" degan fikrlarni bildirgan edi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-maydagi 271-son qaroriga muvofiq, 2022/2023-o'quv yilidan davlat maktablarida o'quvchilar uchun maktab formasini to'liq joriy etiladigan bo'ldi. Lekin yana turli tushunmovchilik va e'tirozlar paydo bo'lmoqda. Ko'rsatilayotgan asosiy muammolardan biri moliyaviy yetishmovchilik: "hamma bolasiga topganini kiydiradi" shaklida bo'lmoqda.

Formani sotib olishda kam ta'minlangan oilalar farzandlariga mahalliy byudjet hamda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan ko'maklashiladi. 2022-yil 1-iyungacha hududlar



kesimida ehtiyoj aniqlandi va 10-avgustdan har bir tuman (shahar)da maktab formasini ishlab chiquvchilarning savdo shoxobchalari tashkil etiladi.

Bunday chora-tadbirlardan so'ng bir xil formaga o'tishga to'sqinlik qiladigan sabablar qo'tmaydi, fikrimizcha. Agar o'quvchilar maktabga bir xil libosda kelsa, odob-axloq, sog'lom fikrlilik, o'zaro tenglik va belgilangan tartib qoidalariga amal qilish hissi shakllanadi va ular o'rtasida bir-birini kamsitish, yakkalab qo'yish va shu-

lar ortidan kelib chiqadigan ruhiy va jismoniy jarohatlar ham kamayadi. Albatta, joriy qilingan forma o'quvchilarning sog'lig'iga ham zarar yetkazmaydi.

– **Barcha sinf o'quvchilari uchun bir xil maktab formasini joriy etish – bolalar orasida ta'baqalanishni yo'q qilish va oldini olish uchun yaxshi chora. So'nggi vaqtlar arzimasek ko'ringan kichik muammolar bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir yapti. Ota-onalar yig'ilishlaridagi asosiy mavzu ham aynan bolalarning bir-birini kamsitishi ortidan kelib chiqqan janjallar haqida bo'ladi. Menimcha, bolalarning bir xil kiyimda o'qishi boshqalarga nisbatan tenglik hissi saqlashiga yordam beradi, – deydi Yuqorichirchiq tumanidagi 30-maktabning ota-onalar kengashi raisi Xurshida Ulug'boyeva.**

Agar bola atrofida gilar bilan o'zini teng ko'rgan holatda ta'lim olsa, kelgusida ham boshqalarga nisbatan hurmat va insoniylik tuyg'usi saqlanib qoladi. Shunday ekan, maktab formasini joriy etish jamiyatga faqat foyda keltiradi.

Shahribonu RAHMATOVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:

Hamza ABDULLAYEV

Muassis:

O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:

Sardor SA'DULLAYEV

Musahihlar:

Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 18-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va saqlanadi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 2 bosma tabog. Korxonalar manzili: Buyuk Taron ko'chasi, 41. Intelektlar: 203, 3203. Bahoasi kelishilgan narxda. Buyurtma – G-655. Adadi – 10584. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6